



## OILAVIY BOLALAR UYIDA TARBIYALANAYOTGAN O'SMIRLARNI UMUMIY O'RTA TA'LIM JARAYONIGA MUVAFFAQIYATLI INTEGRATSİYALASH CHORA- TADBIRLARI.

Raimov Jasur  
Jaxongirovich

QDPI 1-bosqich magistranti  
jasurbekraimov531@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oilaviy bolalar uyida tarbiyalanayotgan o'smirlarni umumiyl o'rta ta'lif jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyalash chora-tadbirlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Oilaviy bolalar uylari, integratsiya, umumiyl o'rta ta'lif jarayoni.

Bizga juda yaxshi ma'lumki yurtimizda bolalarga, ayniqsa mexrga muhtoj bolalarga bo'lган e'tibor azal-azaldan eng muhim qadryatlardan biri hisoblangan. Biz buning misoli sifatida "Mehribonlik uylari" "Bolalar uylari" "Maxsus makkab internatlari"ni keltirishimiz mumkin. Ushbu dargohlar tom ma'noda mexrga muxtoj bolalar uchun nafaqat ta'lif dargohi balki ularning ikkinchi uyi sifatida ham gavdalanadi. So'ngi yillarda esa "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilarini haqiqiy Ota va ona mexrini tuyishlari, oila nima va unda qanday qadryatlar borligini o'z ko'zlar bilan ko'rib va his qilib hayot kechirishlari uchun "Oilaviy bolalar uylari" tashkil etildi. Buning qonuniy assosi sifatida hukumatimiz tomonidan 2022-yil 16-avgustdag'i 451-sonli qarori bilan "Oilaviy bolalar uylari to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Hujjatga ko'ra, oilaviy bolalar uyi tuman (shahar) hokimi qarori bilan tashkil etiladi. Bolalarni oilaviy tarbiyaga olish istagida bo'lganlar hokimlikka ariza beradi. Bunda nikohdan o'tgan, 35 yoshdan 60 yoshgacha fuqarolar tutingan ota-onalarga bo'lishi mumkin. Shuningdek, oilaviy tarbiyalash uchun tug'ilganidan boshlab 18 yoshgacha bo'lgan bolalar beriladi. 10 yoshga to'lgan va undan yuqori yoshdagi bolalarni oilaviy bolalar uyiga faqat ularning roziligi bilan berish mumkin.

Oilaviy bolalar uyiga tarbiyalash uchun 3 yoshdan kamida 3 nafar, lekin ko'pi bilan 5 nafar bola beriladi. Oilaviy bolalar uyidagi tarbiyalanuvchilarning yashash xarajatlari Davlat budgetidan qoplanadi. Nizomga muvofiq, tutingan ota-onalarga har bir tarbiyalanuvchi bolaning yashash xarajatlari uchun har oyda 7 yoshgacha bolalarga BHMning 5 baravari (1,5 mln so'm), 8-18 yoshdagilar uchun BHMning 7 baravari (2,1 mln so'm) miqdorida pul ajratiladi. Qo'shimcha ravishda, Prezidentning 5 avgustdag'i PQ-345-son qarori bilan oilaviy bolalar uyini tashkil etgan fuqarolarga Davlat budgetidan mablag' ajratilishi belgilab berildi. Shuningdek, Milliy Gvardiya hamda Xalq ta'lif vazirligi bilan hamkorlikda oilaviy bolalar uylarini tashkil qilmoqchi bo'lgan fuqarolar uchun tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslari tashkil

etiladi. Yuqoridagi raqamlar va qarorlardan ko'rinib turibdiki, yurtimizda hech qaysi farzand qarovsiz va himoyasiz qolmaydi.

Oilaviy bolalar uylariga tarbiya qilish uchun olingan bolalardagi asosiy qiyinchiliklardan biri-bu ularning yangi muhitga sekin moslashishi yoki moslashish jarayonining biroz qiyin kechishidir. Bu qiyinchilik nafaqat oila muhitida balki ta'lim jarayonida ham kuzatilishi mumkin. Oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan o'smirlarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatlari integratsiyalash esa asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Har qanday bolada o'smirlik yoshi biroz qiyin kechishi mumkin ammo oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarida bu jarayon ikki hissa qiyin kechishi mumkin. Chunki bola nafaqat yangi muhitga moslashishi va hayotida hali umuman ko'rmagan, uchramagan insonlar bilan muloqotga kirishishi kerak bo'ladi. Bunday holatda esa Ota-onalarga va pedagoglarning ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlamog'I, ularni yangi do'stlar orttirishi va tezroq har qanday muhitga moslashib ketishi uchun asosiy bo'g'in bo'lib ximat qilishi lozim. Oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan o'smirlarni umumiy o'rta ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatlari integratsiyalash uchun nafaqat Ota-onalarga mahalla yettiligi hamda Milliy gvardiya organlari ham birdek harakat qilmog'i lozim. Chunki Milliy gvardiya organlari oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan bolalarga ma'sul organlardan biri ekanligi, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan. Ushbu o'smir yoshlarni umumiy o'rta ta'lim jarayoniga jalb qilishda turli xil metodikalardan foydalanish mumkin. Masalan birinchi navbatda ularning qiziqishlarini turli xil metodlar yordamida aniqlash va shu qiziqishlari asosida ularni turli xil to'garaklar, sport musobaqalari va boshqa faoliyat turlariga jalb qilish orqali asta sekinlik bilan ta'lim jarayoniga integratsiyalashni amalga oshirish lozim. Qo'shimcha sifatida aytadigan bo'lsam, eng katta mas'uliyat albatta tutingan ota-onada bo'lib, agar ular o'zlari asrab olgan, mexrga muxtoj bolalarni o'z farzandlari bilan teng ko'rib, ularga bor mexrlarini berib borsa, bunday oilada o'sayotgan har qanday bola har qanday jarayonga moslashib keta oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, Oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan o'smirlar umumiy o'rta ta'lim jarayoni va ijtimoiy jamiyatga moslashishlari uchun barcha ijtimoiy institutlar oila, muktab, mahalla hamkorligini kuchaytirish hamda Vazirlar mahkamasining qarorlarini hayotga tadbiq qilish va bolalarni o'z tarbiyasiga olgan oilalardagi ota-onalarning xuquqiy, pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish, bola asrab olgan oilalar bilan do'stona aloqa o'rnatish va bolalarning tabiatiga mos munosabatda bo'lish, ularni kasb-hunarga yonaltirish hamda umumiy o'rta ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatlari integratsiyalash ishlariga mexr bilan chin dildan, astoydil yondashsalar, bola asrab olgan oilalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlarini real, kompleks nazorat qilinsa ko'zlangan maqsadga erishgan bo'lar edik. Bundan tashqari Oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan bolalarga zamonaviy kasblarni o'rgatish maqsadida bepul kurslarni tashkil etish, ularning qiziqishlari asosida ular turli xil sport to'garaklari, fan olimpiadalariga olib borish eng muhim esa o'z vaqtida rag'batlantirib turish ham ularni o'zlariga bo'lgan ishonchini uyg'onishiga va turli yutuqlarga erishgan holda jamiyatda asta-sekin o'z o'rniga ega bo'lishlariga zamin bo'lgan bo'lar edi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilaviy bolalar uylari faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 4-avgustdagi PQ-345-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.08.2022 yildagi 451-son
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/08/17/family-orphanage/>
4. <https://yaran.uz/uz/oilaviy-bolalar-uylari/>